

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG  
TARG‘IB QILISH BO‘YICHA HAMKORLIK  
ISTIQBOLLARI»  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

*2020-yil 19-20-oktabr*

**TOSHKENT - 2020**

**«O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari»:  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / Mas‘ul muharrir – Sh. Sirojiddinov. -T.: 2020.  
- 550 bet.**

**Mas‘ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov,**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

**Tahrir hay‘ati:**

**T. Tog‘ayev** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
**Z. Xolmanova** – filologiya fanlari doktori, professor;  
**B. Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor;  
**M. Xakimova** – filologiya fanlari doktori (DSc)  
**N. Ahmedova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**M. Umurzoqova** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
**M. Xolmurodova** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
**Sh. Bobomurodova** – filologiya fanlari nomzodi  
**K. Mavlonova** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Ushbu to‘plamda «O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish uchun amalga oshirilayotgan ishlar, o‘zbek tilshunosligida bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik masalalari, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganish va rivojlantirish masalalari, madaniyatlararo muloqot va o‘zbek tili taraqqiyoti, globallashuv va hozirgi turkiy tillar, o‘zbek tilini o‘qitish muammolari, kompyuter lingvistikasi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE  
AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**“MATERIALS OF INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE  
ON THE THEME:  
“UZBEK LANGUAGE DEVELOPMENT AND  
PROBLEMS OF INTERNATIONAL  
COOPERATION”**

*October 19-20, 2020*

**TASHKENT - 2020**

**“Uzbek language development and problems of international cooperation”: materials of international scientific-practical conference” / Responsible editor – Sh. Sirojiddinov. -T.:– P. 550.**

**Responsible editor**

**Shuhrat Sirojiddinov,**

*Doctor of philological sciences, professor*

**Editorial board:**

**T.Togaev** – PhD in philological sciences;

**Z. Kholmanova** – Doctor of philological sciences, professor

**B.Mengliev** – Doctor of philological sciences, professor

**M. Khakimova** – Doctor of philological sciences;

**N. Akhmedova** – PhD in philological sciences;

**M. Umurzakova** – PhD in philological sciences;

**M. Kholmurodova**– PhD in philological sciences;

**Sh. Bobomurodova** – PhD in philological sciences;

**K. Mavlonova** – PhD in pedagogical sciences

This collection contains the articles submitted to the international scientific-practical conference “Prospects for cooperation in the promotion of the Uzbek language in the world”. The collection includes work on the promotion of the Uzbek language in the world, current research in Uzbek linguistics, international cooperation, history of Uzbek and Turkic languages, study and development of Uzbek language with other Turkic languages, intercultural communication and Uzbek language. Theoretical and practical issues of Uzbek linguistics, such as development, globalization and modern Turkic languages, problems of teaching Uzbek language, computer linguistics are discussed.

The book is intended for philologists, researchers, graduate and undergraduate students, as well as the general public.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin.

**Shavkat Mirziyoyev**

Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, ulug‘ alloma, XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Is’hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”.

**Shavkat Mirziyoyev**

Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta’limning barcha bosqichlarida o‘zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o‘rgatishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o‘zbek tilida ravon o‘qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin.

**Shavkat Mirziyoyev**

2.V.N .Polyakov, V.D. Savelyev, and V.D. Solovyev “Opyt primeneniya metodov intellektual'nogo analiza dannykh v komparativistskikh i tipologicheskikh issledovaniyakh,” RCAI-2006: conference proceedings, vol. 1, pp. 217-224, 2006.

3. Maps for Turkic Languages [Online] Available: <http://turk.polycorpora.org>

4. The World Atlas of Language Structures [Online] Available: <https://wals.info>

5. Electronic Atlas of Tatar Dialects [Online] Available: <http://atlas.antat.ru>

6.F.I. Salimov, R.F. Salimov, “Creating electronic resource ethno-linguistic materials of the tatar language,” Revista Genero & Direito, vol. 8, is. 7, pp. 183-191, 2019.

7.D.S. Suleymanov, A.R. Gatiatullin “Sistema semanticheskikh universalii i ikh realizatsiya v vide relyatsionno-situatsionnogo freyma,” Kognitivno-semioticheskie aspekty modelirovaniya v gumanitarnoy sfere, pp. 185-210, 2017.

8.Suleymanov D.S., Gatiatullin A.R., and Karabaeva S.Zh. “K razrabotke funktsional'no-struktural'noy modeli affiksatsionnykh morfem yazykov tyurkskoy gruppy (na primere kirgizskogo i tatarskogo yazykov)” Kazanskaya nauka, no. 6, pp 120-122, 2013.

9.Almenova A.B. “Instrumentariy dlya opredeleniya lingvo-statisticheskoy blizosti yazykov s ispol'zovaniem modeli tyurkskoy morfemy” Programmnye produkty i sistemy, no. 1, pp. 172-176, 2018.

10.Abdurakhmonova N. Z. Modeling analitical of verb in Uzbek as stage of morphological analysis in machine translation, Iranian journal of social sciences and humanities research vol.5, is.3, pp. 97-107, 2017.

**O‘zbek tilshunosligida axborot-qidiruv tizimlari lingvistik ta’minoti borasidagi ishlar haqida**  
**Research works about linguistic supply of information and search systems in uzbek language**

*Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna\**

***Annotation.** The article discusses the role of linguistic support in the processing of information in the information retrieval system, research on linguistic support in Uzbek linguistics, their application in practice. It is also based on the importance of linguistic support by processing natural language on a computer. The importance of formal grammar, language translation, machine translation, computer lexicography, and linguistic-statistical research, which form the basis of linguistic support, is shown.*

***Key words:** linguistic support, computer lexicography, morphological analysis, information retrieval system, linguistic-statistical research, machine translation.*

**Kirish.** Kompyuter lingvistikasida ma’lumotlarni axborot-qidiruv tizimida qayta ishlash masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. Bu mashina tarjimasini, morfologik analizator, nutq sintezatori, til korpusi kabi barcha yo‘nalishlar uchun bir xilda ahamiyatli. Ushbu yo‘nalishlar barchasi lingvistik va dasturiy ta’minotga ehtiyoj sezadi.

**Asosiy qism.**

*Formal grammatika nega kerak?* O‘zbek kompyuter lingvistikasi mutaxassisi A.Po‘latov o‘zbek tili grammatikasi to‘liq va yagona sistemaga keltirilmaganligini afsus bilan ta’kidlaydi. “Kompyuter lingvistikasi” darsligida formal grammatikani yaratish holati haqida shunday yozadi

---

\* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). hamroyeva81@mail.ru

[5]: “Grammatika asoslarini bayon qilarkanmiz, yuqoridagi kamchiliklarni chetlab o‘tishga intildik. Bunda o‘zbek tili grammatikasini iloji boricha sodda tushuntirish, ingliz tili bilan qiyoslash, kamchiliklarga e‘tibor qaratish, unga kompyuter imkoniyat va talablarini hisobga olgan holda yondashish maqsad qilib olindi. O‘zbek tili grammatikasini tasvirlashdagi asosiy bo‘limlar: alfavit, tovush, tinish belgilari (1); so‘z yasash yo‘llari (2); so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fel, ravish, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid) (3); so‘z birikmalari (5); gan bo‘laklari (ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) (4); sodda gap, sodda gap turlari: darak, so‘roq, buyruq, undov (6); qo‘shma gap: bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap, murakkab gaplar (7); uslubiyat: badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik, so‘zlashuv, kompyuter (axborot) uslublari (8); matn, nutq va diskurs (muallif, retsipient, muhit, matndan chetlanish, so‘zlarning talqini, anaphora resolution) (9); matn tarkibiy qismi (yadro, tafsilot, misol); referatlashtirish, sarlavha qo‘yish (10).

A.Po‘latovning fikricha, o‘zbek tili grammatikasi kompyuter lingvistikasida tabiiy tilga ishlov berish tizimlari uchun (yuqorida ko‘rsatilgan tizimda) to‘la o‘rganib chiqilmagan: sistemalashtirilmagan, formallashtirilmagan. Masalan, fe‘l, ot va boshqa turkumlarga oid so‘z shakllar, gap konstruksiyalari to‘lik ro‘yxatga olinmagan (masalan, birgina *ishlamoq* fe‘lining o‘zbek tilida taxminan 100 ming, ingliz tilida taxminan 150 ta shakli mavjud). Bular haqidagi ma‘lumotlar [3] asarida keltirilgan” [5; 28]. Bundan kelib chiqadiki, axborot-qidiruv tizimlari uchun o‘zbek tilining formal grammatikasi, shu asosda dasturiy vositalarning lingvistik ta‘minotini ishlab chiqish kompyuter lingvistikasi oldida turgan dolzarb vazifa sanaladi.

Ma‘lumki, lingvistik ta‘minot lingvistik modellar yaratishga asos bo‘ladi. O‘zbek kompyuter lingvistikasida lingvistik model va modellashtirish, uning umumiy tamoyillari haqida fikr yuritilgan ishlar ko‘p emas. S.Muhamedov va R.R.Piotrovskiy tomonidan o‘zbek tilidagi matnlarning kvantativ modellari tuzilgan [4]. SHuningdek, inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta‘minoti [1] borasida qilingan ilk tadqiqotlar axborot-qidiruv tizimida o‘zbek tili so‘zshakllarini qayta ishlashda katta ahamiyat kasb etadi.

*Mashina tarjimasida lingvistik ta‘minot.* Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta‘minotini yaratgan tadqiqotchi N.Abdurahmonova 12 mingdan ortiq o‘zbek tili fe‘lli frazemalarni Access ma‘lumotlar bazasiga jamlagan; 3 mingdan ortiq ingliz tilidagi asosiy fe‘llar ma‘nosi va o‘zbek tilidagi muqobillari berilgan [1]. N.Abduraxmonovanning fikricha, ingliz va o‘zbek tillaridagi derivativ imkoniyatning o‘rganilishi morfotaktik holatni aniqlashda, ya‘ni har bir morfemaning semantik, mantiqiy chegarasini topishga yordam beradi [1]. Tadqiqotchining ta‘kidlashicha, tarjimaning uch asosiy komponenti mavjud bo‘lib, asos matn (1), unga yondashuvning to‘g‘riligi (2) va terminologiya (3) masalalari juda muhim. Matnni tarjima qilishda tahlil jarayoni, so‘zning matndagi ma‘nosini tushunish hamda matnni tiklash jarayoniga alohida e‘tibor qaratish talab qilinadi [1; 76]. Demak, axborot-qidiruv tizimida sifatli qidiruvini amalga oshirishda lingvistik ta‘minot muhim omil sanaladi. Tadqiqotchi mashina tarjimasining tahlil bosqichlari sifatida tokenizasiya (so‘z shakllarini aniqlash), lemmatizasiya (so‘zni aniqlash) va stemmizasiya (yetakchi/ko‘makchi morfemalarni aniqlash)larni ajratadi. Bu jarayonlarni ishga tushish uchun dasturiy tizimning lingvistik ta‘minoti sifatida asos/leksemalar lug‘ati talab qilinadi. Morfologik analiz komponentlari lug‘atning maxsus obyektli modeli (1), lug‘at (2), morfologik qoidalar (3), fonologik va morfologik qoidalar (4)ga ajratiladi[1; 56]. Morfologik tavsif komponentlari sifatida ajratilgan ushbu vositalari morfoanaliz uchun juda muhim sanaladi.

Rodolfe Delmontening fikricha, morfologik analiz u yoki bu kategoriyalarni tahlil etibgina qolmay, leksikon uchun quyidagi lingvistik kategoriyalar ustida ham tahlil olib boradi [6; 167-169]:

- 1) grammatik kategoriyalar;
- 2) semantik kategoriyalar;
- 3) diskurs darajasidagi kategoriyalar;

- 4) sintaktik kategoriyalar;
- 5) tobeli kategoriyalar;
- 6) semantik konseptual kategoriyalar;
- 7) chegaralangan leksik birliklar;
- 8) grammatik cheklovlar.

Istalgan tizim (axborot-qidiruv, mashina tarjimasida, avtomatik tahrirda) soʻzlarning grammatik (morfologik va sintaktik) tahliliga murojaat etiladi. Shu bois koʻp tadqiqotlarda morfologik tahlilni optimallashtirishga oid qator fikrlar bildirilgan [2; 84-92].

Ingliz va oʻzbek tillaridagi yasovchi qoʻshimchalarni statistik jihatdan hisoblash, ularning semantik bazasini yaratish dasturiy taʼminot tuzishda yordam beradi. Kompyuter uchun qoʻshimcha (morfema)larni alohida baza tarzida ajratish, modellarini aniqlash tahlil jarayonida muhim omil. Modellashtirish – mashina tarjimasida eng samarali metod; bunda lisoniy hodisalarni muayyan darajada tahlil qilish, tekshirish va solishtirish imkoniyati mavjud. Nutqiy hodisalarning barchasini oʻzida toʻliq aks ettirishda, ular haqida muayyan xulosa berishda ahamiyatli. Tilda universal qolipni yaratish mumkin emas, chunki til nutqiy hodisa sifatida har bir individda oʻz aksini topadi. Masalaning optimal yechimini topishda har bir tilning tahlili uchun oʻnlab algoritmlar yaratilganini hisobga olib, taʼkidlash lozimki, tilni formal darajada modellashtirish – samarali usul. Mashina tarjimasida lingvistik taʼminot mukammal darajada boʻlsagina, uning dasturiy taʼminoti yaratiladi. Lingvistik taʼminotning semantik qatlami, til va nutq birliklari bazasi mashina tarjimasida omonimiya va sinonimiyani aniqlash, farqlash, toʻgʻri yechim berish masalasini hal qilishda yordam beradi.

*Lingvofolkloristika va kompyuter leksikografiyasida lingvistik taʼminotning ahamiyati.*

Hozirgi zamon tilshunosligida til qonuniyatlarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish uchun lingvostatistik kuzatishlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Mazkur usulni amaliyotga tatbiq etish bilan, birinchidan, lingvistik kuzatishlarda aniq faktlarga tayaniladi, ikkinchidan, metatil (rus. *metayazik*)ni yaratishday dolzarb muammo sari bir qadam qoʻyiladi. Chunki matn oʻz-oʻzini tashkil etuvchi, ochiq sistema sifatida hozirgi davrda mavjud boʻlgan leksik va grammatik axborotlarni statistik saqlash tizimi hisoblanadi. Matn uslubiga xos jihat izlanishi jarayonida ayrim leksemalar bajargan konnotativ vazifaning namoyon boʻlishi matn lingvistikasida lingvostatistik, lingvostilistik, lingvopoetik tahlillarning birgalikda olib borilishi zarurligi haqidagi nazariy qarashni amaliy jihatdan isbotladi. Demak, oʻzbek tilidagi har bir leksik-semantik guruhga oid birlik, har bir soʻz turkumiga oid element shu tahlil usuliga tayanilgan holda olib borilishi mumkin [8; 67].

Shu sohada monografik ishlarda tilning matematik modelini yaratish, lingvistik muammolarni hal qiluvchi turli xil kompyuter dasturlari, jumladan, lingvostatistik ehtiyojlar yechimini topishga yoʻnaltirilgan dasturlarni tuzishning ilmiy-amaliy ahamiyati xususida soʻz yuritiladi [8; 78-86]. Kompyuter xotirasiga kiritilgan til materiali lingvistik-axborot baza hisoblanadi. Ishlab chiqilgan lingvistik algoritmlar, modullar bir tizimga jamlangach, lingvistik-axborot, matematik-axborot taʼminoti va maʼlumotlar bazasi (banki) maʼlum bir matnni avtomatik qayta ishlash mexanizmi yaratiladi. Maʼlumotlar bazasi kengaygan sari lingvistik-axborot taʼminoti muammosi kamayib boradi. D.Oʻrinbayeva maʼlumotlar bazasini vujudga keltirishda tilning leksik, grammatik, fonologik va morfonologik bloklarni atroflicha va batafsil tavsiflaydi [8]. Amalga oshirilgan tadqiqotlar yakuni oʻlaroq, oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi matnlari morfologiyasining lingvostatistik tadqiqida masalaga grammatik umumlashtiruvchilik pozitsiyasidan yondashadi; ters lugʻat tuzishga moʻljallangan kompyuter dasturi yaratish tamoyillarini tavsiflaydi [8].

Matnga leksikografik ishlov berishning kompyuter taʼminotini takomillashtirish, maksimal lingvostatistik aniqlikka erishish, shuningdek, soʻzshakllarni yagona oʻzak atrofida jamlash, ularni fonema, morfemaga ajratish, soʻz birikmalari lugʻatini tuzish dasturini yaratish



nafaqat lingvofolkloristik, balki fonologik, leksik-semantik, lingvostilistik va lingvopoetik tadqiqotlar uchun ham dolzarbligicha qolaveradi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot-qidiruv tizimlari uchun lingvistik ta'minot yaratish mashina tarjimasini, kompyuter leksikografiyasi, korpus lingvistikasi, qolaversa, morfologik analiz jarayoni uchun dasturiy ta'minotning zaruriy tarkibiy qismi sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (соғда гаплар мисолида): филол. фан. бўйича фалсафа докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 49 б. – Б.13.
2. Belonogov G. G. On the use of a similarity method for automatic processing of textual information [Об использовании метода аналогии при автоматическом обработке текстовой информации] Problems of cybernetics [Problemy kibernetiki]. Issue 28. – Moscow: Nauka Publ., 1974;
3. Пулатов А., Мўминова Т., Пулатова И. Дунёвий ўзбек тили. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилидаги кўринишлари. – Тошкент: Университет, 2003.
4. Мухамедов С.А., Пиотровский Г.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов. –Т.: Фан, 1986; Махмудов М.А., Пиотровская А.А., Садыков Т. Система машинного анализа и синтеза тюркской словоформы // Переработка текста методами инженерной лингвистики. –Минск, 1982.
5. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент, 2011.
6. Rodolfe D. Computational Linguistic Text Processing: Lexicon, Grammar, Parsing and Anaphora Resolution. Nova Science Publishers, Inc. – New York, 2008. – P. 4-5.
7. Sokirko A.V. Bystroslovar': morphological prediction of new Russian words using very large corpora [Быстрословарь: предсказание морфологии русских слов с использованием больших лингвистических ресурсов]. Компьютерная лингвистика и Интеллектуальные Технологии: Труды Международной Конференции «Dialog 2010» [Computational Linguistics and Intelligent Technologies: Proceedings of the International Conference «Dialogue 2010»]. – Moscow, 2010. – P. 450.
8. Ўринбаева Д. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари: фил. фан. докт. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 74 б.

#### **Jahon va o'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining tadrijiy taraqqiyoti Progressive development of corporate linguistics in world and uzbek linguistics**

*Eshmuminov Asqar Allamurodovich\**

**Annotation.** *The article puts forward the views on the Corpus, the history of Corpus linguistics, the creation of linguistic corpora.*

**Key words:** *Corpus, corpus linguistics, corpus types, problems of creating a national corpus of Uzbek language*

Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining mustaqil bo'limi, lingvistik korpuslar (matn korpuslari)ni tuzish va undan foydalanish tamoyillarini kompyuter texnologiyalarini qo'llagan holda ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. U XX asr 90-yillarining o'rtalaridan

---

\* filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, TerDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, [asqar@list.ru](mailto:asqar@list.ru)

85	<b><i>Mavlyanov Sanjar</i></b> O‘zbek tilida diplomatik terminlar o‘rtasidagi leksik – semantik xususiyatlar	340
86	<b><i>Абдуллаева Гәүһәр</i></b> Тәрки телләрдәге полипредикатив конструкцияләр	345
87	<b><i>Hojiyeva Nigina</i></b> Olma leksemasi xususida	347
88	<b><i>Hasanov Abdumannon</i></b> Dialektlar – til leksikasini boyitish manbayi	353
<b>V SHU‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA</b>		
89	<b><i>Mengliyev Baxtiyor</i></b> O‘zbek tili taraqqiyoti va rivojlanish omillari	358
90	<b><i>Mengliyev Baxtiyor, Xamroyeva Shahlo</i></b> Turkiy tillardagi morfologik analizatorlar xususida	360
91	<b><i>Qurbonova Munavvara Abdujabborovna</i></b> O‘zbek nutq sintezatori uchun leksikografik manbalar ta‘minoti	364
92	<b><i>Ernazarova Manzura, Bazarbayeva Navbahor</i></b> Grammatik ma‘noning lisoniy va pragmatik omillar hamkorligida o‘rganilishi	366
93	<b><i>Azimova Iroda Alisherovna</i></b> O‘zbek tilidagi agrammatik afaziyada fe’llarning tushunilishi	371
94	<b><i>Gatiatullin Ayrat, Abduraxmonova Nilufar</i></b> O‘zbek tilining lingvistik ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda “turkiy morfema” portali instrument sifatida	376
95	<b><i>Xamroyeva Shahlo</i></b> O‘zbek tilshunosligida axborot-qidiruv tizimlari lingvistik ta‘minoti borasidagi ishlar haqida	385
96	<b><i>Eshmuminov Asqar</i></b> Jahon va o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining tadrijiy taraqqiyoti	388
97	<b><i>Yo‘ldoshev R. A.</i></b> O‘zbek tilida nomsiz, o‘gay qo‘shimchalarning kategorial o‘rni haqida	392
98	<b><i>Mo‘yidinov Qodirjon</i></b> O‘zbek tilidagi ayrim terminlarning sud nutqida qo‘llanishi	396
99	<b><i>Ibragimova Guli Toirovna</i></b> O‘zbek tili milliy korpusining interfeysini shakllantirish algoritmi	398
100	<b><i>Gulyamova Shaxnoza</i></b> Omonimlarning kompyuter lingvistikasidagi tadqiqi	401
101	<b><i>G‘aybullayeva Nafisa</i></b> Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasiga oid ayrim mulohazalar	408
102	<b><i>Turdaliyeva Dilfuza Soloxidinovna</i></b> Xalq maqollari mualliflik variantlarining badiiy nutqdagi o‘rni	409
103	<b><i>Mengliyeva Munira</i></b> O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning amaliy masalalari	411
104	<b><i>Abdullayeva Oqila</i></b> Korpus lingvistikasi va soha rivojidadagi o‘ziga xosliklar	407
105	<b><i>Ahmadova Umida</i></b> Perifrazalarning milliy-etnik xususiyatlari	411

106	<b><i>Aqmanova Shahnoza</i></b> Son turkumiga oid soʻzlar asosida shakllangan bibliionimlar	415
107	<b><i>Axmedova Dildora</i></b> Semantik razmetkaning oʻrganilishi va amaliyotda qoʻllanilishi	417
108	<b><i>Pardayeva Madixabonu</i></b> Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida sarlavha va taxallusni ifodalovchi leksemalar tahlili	420
109	<b><i>Ravshanova Raʼno</i></b> Oʻzbek muloqotida murojaatning noverbal shakllari	423
110	<b><i>Yunusova Shakhnoza</i></b> On advertisement lexis (Slogan based research)	427
111	<b><i>Saidova Farida</i></b> Mustaqillik davri oʻzbek tilshunosligi terminologiyasidagi oʻzgarishlar	430
112	<b><i>Qobulova Nodira</i></b> Asar tilida leksik qatlamlarning oʻrni	437
113	<b><i>Safarova Goʻzal Qudratovna</i></b> Sotsiolingvistik tadqiqotlarda til va madaniyat uygʻunligi	439
114	<b><i>Zaripov Rafiqjon</i></b> Mustaqillik davrida Oʻzbekistonda alifbo va imlo masalalari: muammolar va yechimlar	442
115	<b><i>Saidaxmedova Odinoxon</i></b> Ona tilida morfemalarning oʻzlashish tartibi (turli tillar misolida)	450
116	<b><i>Xoliyorov Oʻral</i></b> Xorij lingvodidaktikasining elektron taʼlim resurslaridan foydalanish tajribasi xususida	453
117	<b><i>Xolova Muyassar</i></b> Dialektologik atlas - shevalar korpusida bazaviy maʼlumotlar ombori sifatida	457
118	<b><i>Yunusova Durdona</i></b> Shavkat Rahmon ijodida sifat soʻz turkumiga doir soʻzlarning metafora hosil qilish usullari	463
119	<b><i>Muborak Shoh Fulodiy</i></b> Afgʻoniston oʻzbek shevalaridagi otchilikka oid soʻzlarning “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da berilishi	467
120	<b><i>Hamidova Iroda</i></b> Analysis of the concept of "spirituality" in dictionaries and modern scientific literature	470
121	<b><i>Muxitdinova Xadicha</i></b> Oʻzbek tili taʼlimining milliy konsepsiyasi: mavjud muammolar, istiqboldagi vazifalar	472
122	<b><i>Enazarov Tolib Djumanazarovich</i></b> “Oʻzbek dialektologiyasi”ni oʻqitish va bu sohada tadqiqotlar olib borish metodikasi xususida	477
123	<b><i>Adilova Saodat</i></b> Chet elliklarga oʻzbek tilini oʻqitishning oʻziga xosliklari	481
124	<b><i>Qarayeva Begʻam</i></b> Oʻzbek tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻrganishda ona tilining roli (oʻzbek va rus tillari misolida)	484
125	<b><i>Yuldasheva Nilufar Abdullayevna</i></b> Tilimiz sergaklikni talab qiladi	487
126	<b><i>Islomov Ikrom</i></b>	489

127	Maktab ona tili ta'limida lug'at bilan ishlash <i>Mavlonova Klaraxon</i>	492
128	Ona tili ta'limini takomillashtirish zarurati <i>Kuldasheva Sanobar</i>	505
129	Multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari va afzalliklari <i>Abjalova ManzuraAbdurashetovna</i>	507
	Lingvistik kompyuter dasturlari uchun ma'lumotlar bazasi va lingvistik protsessor	
130	<i>Boxudova Citoraбону</i>	510
	Родственные языки и их особенности при обучении английскому языку	
131	<i>Sharipov Sohob</i>	513
	O'zbek tilining maktab o'quv lug'atlarida til va madaniyat yaxlitligi talqini masalasi	
132	<i>Quronov Sa'dullo</i>	518
	Nutqiy mavzularning belgilanishiga doir	
133	<i>Saydaxmedova Zeboxon</i>	520
	Ona tili o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasi	
134	<i>Toyirova Gulsanam</i>	523
	Til ta'limidagi muammolar va ularning yechimlari	
135	<i>Xakimova Nilufar</i>	525
	Ona tili darslarida o'qib tushunish malakasini rivojlantirish	
136	<i>Tursunov Shokirjon</i>	530
	Ona tili ta'limida og'zaki nutqni baholash masalasi	
137	<i>Yakubova Feruza</i>	533
	Erkin Vohidov she'riyatida ma'nodosh so'zlarning qo'llanishi	
138	<i>Abdurahmanova Sayyora Bozorboy qizi</i>	537
	O'zbek kompyuter lingvistikasi va avtomatik tahrir dasturini yaratish tamoyillari	

**«O'ZBEK TILI DUNYO MIQYOSIDA KENG TARG'IB QILISH  
BO'YICHA HAMKORLIK MASALALARI »  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**Texnik muharrir:**

Botir Tojiboyev

**Musahhihlar:**  
Shahlo Xamroyeva  
Nilufar Abdurahmonova